

## YANGI TEXNOLOGIYALAR VA IJTIMOYIY TARMOQLARNING INSON ONGINGA TA’SIRI

*Jalilova Muhayyyo*

*Andijon Davlat Universiteti Ijtimoi-Iqtisodiyot fakulteti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, internetning jamiyatga salbiy va ijobiy ta'siri, uning oqibatlari, kiber jinoyatlar va virtual do'stlarning roli, va internetning ijobiy va salbiy natijalarining ta'qiblari haqida ma'lumotlar berilgan. Maqola, hozirgi zamonaviy texnologiyalar va insoniyat munosabatlarining integratsiyasi to'g'risida muhokama yuritadi.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyasi, internet, ijobiy, salbiy oqibatlar, virtual do'stlar, kiberjinoyatchilar.

An'anaviy texnologiyalar XXI asrda muhim ahamiyatga ega. Bu asrda, texnologiya va internetning rivojlanishi jadal ko'rib turilmoqda. "Texnologiya" so'zi muhandislik va ilmiy bilimlarning jami hisoblanadi, ularda mehnatning moddiy va real tarkibiy qismlari, shuningdek, mahsulot yoki xizmatni olish uchun yaratilgan kombinatsiyalar turli xil shakllarini ifodalaydi. Internet esa katta va kichik kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'lovchi butunjahon kompyuter tizimi sanaladi. Hozirgi kunda hech bir inson o'z hayotini internetsiz va mobil aloqalarsiz tasavvur qila olmaydi, ayniqsa, bizning kelajagimiz bo'lmish texnologiya asri yoshlari. Insonlar internetdan har xil niyatda foydalanishadi, u foydali bo'lishi ham zararli bo'lishi ham mumkin, ya'ni har bir narsada mavjud bo'lgan internetda ham salbiy va ijobiy qarashlar mavjud. Ushbu maqola, avvalo, internetning ijobiy tomonlarini yoritadi va keyin uning salbiy oqibatlari haqida ma'lumot va ogohlantirishlar beradi.

Zamonaviy texnologiya va internetning ijobiy tomonlari juda ham ko'p va ular insonlarning internet va texnologiyadan qanday foydalanishiga bog'liqdir. Hozirgi zamonaviy dunyoda har kuni kompyuterdan foydalanadiganlar soni ko'p va ularning aksariyati o'z hayotlarini butunjahon tarmog'i bo'lmish internetsiz tasavvur qila olmaydilar. Bu, ular uchun dunyodagi eng katta yutuq bo'lib hisoblanadi.

Bu, bir tomondan to'g'ri, chunki insonlar endi kutubxonalarga borishi, u yerda bo'lmasligi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni qidirishi yoki kimdir undan foydalanishini kutishi shart emas va hozirgi kunda hech kim bir narsani soatlab kutishni xohlamaydi. Ammo, bugungi kunda texnologiya va internet rivojlanib bormoqda, ular orqali har bir foydalanuvchi o'zi xohlagan hamma narsani topa olishi mumkin va unda ko'p vaqt va kuch sarflanmaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari zamonaviy jamiyatlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida muhim va hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu texnologiyalar, alohida shaxslar va umuman jamiyatlarning iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni ham yaratadi. Ta'lim jarayonidan kelib chiqqan holda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, albatta, o'qituvchi uchun ham o'quvchi uchun juda samarali va qulaydir. Masalan, dars jarayonini oddiy tushuntirishdan va doskada yozishdan farq qilib, kompyuterdan slaydlarni namoyish etib o'quvchilarda



tasavvur uyushmasi yaratish yoki o'yin texnologiyalari orqali ularni qiziqtirish o'quv jarayonini o'rganishda foydali bo'ladi va mavzu haqida tasavvurga ega bo'linganligi uchun xotirada uzoq vaqt muhrlanib qoladi.

Kompyuter va Internetning kattalar va bolalarga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Ammo, internet ko'plab foydali jihatlari bilan bir qatorda salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Aholida, ayniqsa, yoshlarda axborot iste'moli madaniyatining pastligi, turli xabarlar oqimidan kerakligini ajratib olishda bilim, malaka va ko'nikmaning yetishmasligi ba'zilarining g'arazli kimsa va oqimlar ta'siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo'liqishlariga sabab bo'lmoqda. Texnologiya eng rivojlangan davlatlardan bo'lmish Xitoy Xalq Respublikasida internetga qaramlik kasallik sifatida e'tirof etilganligi va uni davolovchi maxsus shifoxonalar tashkil etilganligi buning yorqin isboti bo'la oladi. Yoshlarning juda ko'pchiligining internetga qaramligi butunjahon dunyoda global muammo bo'lib ulguragan.

Bu internetga qaram bo'lgan insonlar uchun xavfli bo'lishi mumkin, chunki ular o'z qobig'iga o'ralashib qoladi va atrof olamdan bexabar qoladi, virtual-internet olami ularni mas'uliyatsiz, dangasa va loqayd qilib qo'yishidan tashqari sog'lig'iga va ruhiyatiga ham anchagina zarari bor. Agar insonlar, ayniqsa, yoshlar zamonaviy kompyuter o'yinlariga haddan tashqari berilib ketgan bo'lsa, ularni o'ynayotganda u qahramonlar roliga kirishib ketadi, haqiqiy vaqt va hayot tushunchasini yo'qotadi. Masalan, inson o'zini o'rnida tasavvur qilayotgan o'yin qahramoni halok bo'lsa, hatto, bu inson ham o'zini o'ldirishi mumkin. Internetning bunday salbiy tomonlari bo'lsa-da zamonaviy texnologiyalarning foydasi ,albatta, ko'proq bizning hayotimizda va undan unumli foydalanish o'z qo'limizda.

Xulosa qilib, zamonaviy texnologiyalar va internet, dunyodagi aksariyat uchun o'zgartiruvchi va foydali, ammo ularning juda ko'p salbiy oqibatlari bor. Bu esa ularni qo'llab-quvvatlash, o'rganish va tarkibiy ravishda foydalanishimizni talab qiladi, shuningdek, ularni amalda ishlatish va ularga qarshi tushunchalar yaratish ham muhimdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Akhmedov, B. A., Makhkamova, M. U., Aydarov, E. B., Rizayev, O. B. (2020).
2. Trends in the use of the pedagogical cluster to improve the quality of information technology lessons. *Экономика и социум*, 12(79), 802-804
3. Yu.D. Babaeva, Axborotlashtirishning psixologik oqibatlari / "Psixologik jurnal", 1998, 88-100-betlar.
4. Ибрахимов, Б. (2023). НИ ВЕСЕЛОВСКИЙ КАК ИССЛЕДОВАТЕЛЬ СРЕДНЕЙ АЗИИ. *Interpretation and researches*, 1(4).
5. G'ulomjonov, O. (2023). OILAVIY HUQUQLARNI AMALGA OSHIRISH VA OILAVIY MAJBURIYATLARNI BAJARISH. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (7), 856-860.
6. Абдуллаев, А. Н. (2020). SOCIAL AND ECONOMIC FACTORS OF COUVOLUTION PROBLEMS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(8), 150-155.
7. Tolibjonovich, M. T., & Rahimjon o'g'li, G. O. (2021). Prerequisites For The Development Of A Leasing Mechanism In Public-Private Partnership. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6 (SP), 5.
8. Zimbardo F., Leippe M. Ijtimoiy ta'sir. - Sankt-Peterburg: "Peter" nashriyoti, 2000, s



9. <https://multiurok.ru/files/internetning-salbiy-va-ijobiy-tomonlari.html>

10. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

